

SHAXS, JAMIYAT VA DAVLATNING AXBOROT BORASIDAGI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Obidov Feruzbek Umurzoqovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ahamiyati, huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchasi va jamiyatga ta'siri hamda O'zbekiston Respublikasida shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Shaxs, jamiyat, davlat, axborot xavfsizligi, qonunlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, butunjahon internet tarmog'i, konstitutsiya.

Hozirgi globallashuv jarayonida axborot muhim qurollardan biriga aylanmoqda to'g'rirog'i aylanib hayotimizning barcha sohalariga kirib keldi desak adashmagan bo'lamiz. XXI asr boshlariga kelib davlatlar o'rtasida bir-biriga o'zaro ta'sir shu darajada kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'laligicha chetda qolgan birorta ham mamlakat qolmadi. Insonlarning va jamiyatning moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun texnika taraqqiyoti juda katta imkoniyat va qulayliklarni yaratib berdi. Fan-texnika rivojlanayotgan bir vaqtda axborot sohasining sub'yektlari bosma nashrlardan va audiovizual ommaviy axborot vositalari kabi axborot olish manbaalaridan uzoqlashib internet jahon axborot tarmog'ida yaratilgan veb-sahifalar, videoplatformalar/videohostinglar, tezkor ma'lumot almashish imkonini beruvchi turli messengerlar ham boshqa turdagi axborot beruvchi vositalardan ma'lumotlarni elektron tarzda olishga va/yoki uchinchi shaxslarga ulashishga oshiqmoqda.

XXI asrga kelib axborot to'plash, qayta ishlash va tarqatish sohasi ko'z ko'rib quluq eshitmagan darajada rivojlandi. Shaxs, jamiyat va davlat o'rtasida axbarotning muhimligi keskin oshib borishga internet jahon axborot tarmog'i yaqindan ko'maklashmoqda. Hozirgi kunga kelib internet jahon axborot tarmog'i axborot tarqatishda boshqa axborot tarqatuvchi vositalarni ortda qoldirmoqda. Har soniya, daqiqa va soatda barcha qatlamdagi shaxslar turli mazmundagi ma'lumotlarini olish uchun internetga murojaat qiladilar. Axborot borasidagi xavfsizlikni ta'minlashda asosiy ro'lni davlat o'ynashi hisobga olinsa, qonunlar hamda qonun osti hujjatlar qabul qilish orqali sohada shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari himoyasi amalga oshiriladi. Internet jahon axborot tarmog'ida turli xil toifadagi axborotlarni uchratish mumkin, ular: "qora", "kul rang" va "oq" toifadagi ma'lumotlardir. Bularga kengroq to'xtaladigan bo'lsak "qora" axborotlar yolg'on, hech qanday fakt va dalillarga asoslanmagan, shaxs, jamiyat va davlat zarariga xizmat qiladigan ma'lumotlardir, "kul

rang” axborotlarning tarkibi esa yolgʻon va rost maʼlumotlardan tashkil topgan boʻladi bular axborotni taqqoslashga, toʻgʻri maʼlumotlarni notoʻgʻrisidan ajratishga majbur qiladi, “oq” axborotlar toifasiga esa faqat toʻgʻri (rasmiy) maʼlumotlarni oʻzida jamlagan axborotlarni tashkil etadi. Yuqorida aytib oʻtilgan maʼlumotlardan kelib chiqadigan boʻlsak internet sahifalarida axborot xavfsizligini taʼminlash jamiyat vakillarining huquqiy ongi va madaniyati oshirish kerakligiga koʻrsatma beradi.

Globalashuv davrida axborotga boʻlgan talab oldingi davrlarga qaraganda ancha ortib bormoqda. Bundan kelib chiqqan holda xolis axborotlarni tarqatish, ommaning axborotga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish bugungi kunga kelib eng nozik va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globalashuv jarayoni shuni koʻrsatadiki dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyatga ega. Yaʼni axborot jahon mamlakatlari hayotiga ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida taʼsir qilishi mumkin. Bundan tushinish mumkinki, ijobiy taʼsir texnikaviy-texnologik sohada katta yutuqlarni qoʻlga kiritgan davlatlar hisobiga boʻladi, salbiy taʼsir oʻz-oʻzidan barcha sohalarda kamchiliklari mavjud boʻlgan davlatlarga tushadi. Barcha sohada yutuqlarga erishgan davlatlar oʻzlarining gʻoya va turli xil qarashlarini shu axborotlar orqali oʻzlaridan quyi turuvchi davlatlarga singdirmoqchi boʻlishadi. Globalashuv jarayonida “axborot” tushunchasi nozik mohiyatni kasb etmoqda. U inson tafakkuriga turli yoʻllar bilan oʻz taʼsirini koʻrsatadi va insoniyat taqdirini u yoki bu tomonga oʻzgartirib yuboruvchi qudratli vositaga aylamoqda desak adashmagan boʻlamiz.

Insonlar ongida huquq, burch va majburiyat kabi tushunchalar paydo boʻlgandan boshlab, barcha davrlarda turli xil shakllarda insoniyat oʻz manfaatlarini, shaxsiy huquqlarini himoya qilish uchun kurashib keladi. Aynan shunday tortishuvlar, bahs-munozaralar natijasida jamiyatning madaniy saviyasida huquqiy madaniyat va huquqiy ong kabi xususiyatlar rivojlanib boradi. Buning natijasida esa huquq sohasi mukammallashadi. Axborot egasi¹ – yaʼni qonunda yoki axborot mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish va shakllantirish haqida gap boshlashdan oldin, huquqiy ong va huquqiy madaniyat nima ekanligi haqida biroz toʻxtalib oʻtsak.

Huquqiy ong (ing. legal awareness) – amaldagi huquqni namoyon qiluvchi huquq nazariyasida ijtimoiy ongning shakli, qarashlar va his-tuygʻularning majmui, mavjud huquqiy munosabatlarni huquqiy tushuncha va kategoriyalarda baholash, shuningdek istalyotgan huquq haqidagi qarashlar².

Huquqiy madaniyat esa – bu umumiy madaniyatning muhim qismi boʻlib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi:

¹ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida”, 12.12.2002 yildagi 439-II-son, 3-modda.

² Oʻzbekiston Yuridik Ensiklopediyasi. T.: “Adolat”, 2010. 653-bet.

- Davlat tomonidan xalq va jamoat birlashmalari nuqtai nazarini ifodalovchi huquqiy siyosatning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi.
- Yuksak darajada rivojlangan yuridik fanlarning mavjudligi.
- Keng va faol huquqiy ong.
- Insonlarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olish darajasidir.
- Ilgari erishilgan va to'plangan barcha huquqiy tajriba, huquqiy yodgorliklar va ularning ommaga tarqatilishi.
- Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar.
- Huquq ijodkorligi madaniyati, huquq normalarini yaratish masalasi, yuridik texnika darajasi.
- Huquqni amalga oshirish ishlarining tashkil etilish darajasi.

Huquqni amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquq normalari talablari darajasida hamda doirasida o'z huquqi, burchlarini bajarish, ularni anglab olishdir"³. Yuqoridagilardan tushunish mumkinki, huquqiy ong ham huquqiy madaniyatning bir ajralmas qismi ekanligi, bu ikkisi birgalikda shaxsning huquqiy bilimlarini oshirishda va dunyo qarashini shakllantirishda o'z hissasini qo'shib keladi.

Huquqiy madaniyatga ega bo'lish uchun barcha ma'lum miqdorda yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismlardan xabardor bo'lishi, ular bilan uzviy bog'liqlikda ish olib borishi lozim. So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalari sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida fuqarolarning huquqiy madaniyati ancha oshdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yildan-yilga yuridik sohaga hissa qo'shayotgan yetuk mutaxassislar sonining o'sishi, fuqarolarning davlat va huquq bo'yicha bilimlarining oshishi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning demokratiya tamoyillariga asosan o'zgartirilishi, qonunlar va qonun osti hujjatlarining yuqori yuridik texnika bilan yozilishi, fuqarolarning davlat tashkilotlariga murojaatlari sonining o'sishi bunga yaqqol isbot deyish mumkin.

Shaxslarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksalgani sari fuqarolik jamiyati tomon odim qadam tashlashga turtki bo'lmoqda. Jamiyat va davlat boshqaruvida huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak shaxslar qanchalik faol bo'lsa shunda o'zgarish va rivojlanish ijobiy tomonga o'zgaradi. *“Jamiyat insonsiz bo'lishi mumkin emas. Inson jamiyatning tuzilishida va uning rivojlanishida asosiy rolni o'ynaydi. Jamiyat insonlarning bir-birlari bilan jamoa bo'lib yashashga tabiiy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan. Birinchidan, jamiyat – odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Ikkinchidan, odamlarni jamoaga birlashtirgan bir butun organizm bo'lib, uning mohiyati iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy kabi ijtimoiy aloqalar va munosabatlarda namoyon bo'ladi. Uchinchidan, insonlarni*

³ O'zbekiston Yuridik Ensiklopediyasi. T.: “Adolat”, 2010. 651-bet.

birlashtirgan jamiyat murakkab, tobora takomillashib boradigan oilaviy, milliy, sinfiy, ayrim guruhlar o'rtasidagi munosabatlar, manfaatlar asosida quriladi. Jamiyat tabiiy qonunlar va inson tomonidan qabul qilingan qonunlar asosida tashkil topadi va idora qilinadi"⁴. Jamiyatning kichik bir bo'lagi shaxs hisoblanadi. Har bir shaxs qandaydir darajada jamiyatga ta'sir o'tkazib turadi. Jamiyat o'z o'rnida murakkab va turli qatlamda hayot kechiruvchi shaxslardan iborat bo'ladi.

Shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda avvalo shaxsdan boshlash lozim. Ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish orqali sohada huquqbuzarlikning oldi olinishiga erishiladi.

Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar va kafolatlarni yaratishdan boshlanadi, shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta'sir ko'rsatilishidan himoya qilish yo'li bilan ta'minlanadi. Jismoniy shaxsning roziligisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefondagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo'l qo'yilmasligiga huquqiy asoslar ishlab chiqishdan iboratligi. Jismoniy shaxslar to'g'risidagi axborotdan ularga moddiy zarar va ma'naviy ziyon yetkazish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarilishiga to'sqinlik qilish maqsadida foydalanish taqiqlanishi qonun normalarida belgilab qo'yilgani.

Bundan tashqari, jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga erishish uchun demokratik fuqarolik jamiyati asoslari rivojlantirilishi, ommaviy axborot erkinligi ta'minlanishi, qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta'sir ko'rsatishga, uni chalg'itishga yo'l qo'yilmasligi, jamiyatning ma'naviy, madaniy va tarixiy boyliklarini, mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatini asrash hamda rivojlantirish, milliy o'zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an'analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etishga huquqiy asoslarning yaratilganligi.

Shu bilan birga davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda axborot sohasidagi xavfsizlikka tahdidlarga qarshi harakatlar yuzasidan iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa tUSDagi chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat sirlarini saqlash va davlat axborot resurslarini ulardan ruxsatsiz tarzda foydalanilishidan muhofaza qilish, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hududiy yaxlitligini, suverenitetini buzishga, hokimiyatni bosib olishga

⁴ H.B. Boboyev., X.T. Odilqoriyev., Davlat huquq nazariyasi, Toshkent. 2005., 43-bet.

yoki qonuniy ravishda saylab qo'yilgan yoxud tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga va davlat tuzumiga qarshi boshqacha tajovuz qilishga ochiqdan-ochiq da'vat etishni o'z ichiga olgan axborot tarqatilishidan himoya qilish, urushni va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni targ'ib qilishni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovat uyg'otishga qaratilgan terrorizm va diniy ekstremizm g'oyalari yoyishni o'z ichiga olgan axborot tarqatilishiga qarshi harakatlar qilishni huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilganligi.

Shavkat Mirziyoyevning 2016-yilda prezident etib saylanishi ortidan axborot sohasining rivoji hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish borasida tub islohotlar olib borildi. Bulardan eng muhimi 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini keltirish mumkin. Konstitutsiyada **“ommaviy axborot vositalari”**⁵ uchun alohida bob ajratilgani tahsinga sazovor qadamlardan biri ekanligini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, 33-moddada *“... Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi.”* mazmunidagi normaning kiritilishi shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasida o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishdagi chegaralarini aniq belgilab berdi. Axborotning egasi hamda mulkdorlarida yangicha fikrlash va dunyoqarashni shakllantirish natijasida fuqarolik jamiyatida qonunlar soatdek bir maromda ishlashiga erishish mumkin. Shu sababli Bosh Qomusimizda *“...ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi”*⁶ haqidagi norma bilan mustahkamlandi. Fuqarolik jamiyati sari odim qadam tashlar ekanmiz, subyektlarning axborotni yaratish, qayta ishlash va undan foydalanish bilan bog'liq faoliyatini huquqiy jihatdan tartib solib, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligiga raxna solmaslik chegaralarini belgilab berish hamda normalarni qasddan va/yoki ehtiyotsizlik oqibatida buzganlik holatlarida turli sanksiyalar qo'llashni tushuntirib borilishi natijasida axborot sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanib boradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davr mamlakatlari, shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib borayotgan – *ochiq axborot tizimlarida axborot xavfsizlik* muhiti va ko'nikmalarini shakllantirish, shaxslarni turli xil zararli ma'lumotlar iskanjasidan himoyalani bilimlari bilan

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XV bob. 81-82-moddalar.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XIII bob. 69-modda.

qurollantirish, jamiyatning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim va zaruriy vazifalaridan biri hisoblanib qolmoqda. Mazkur institut fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish bilan birga, davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishning samarali tizimini yaratilishiga ham xizmat qiladi⁷.

Shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda huquqiy jihatdan barcha chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuqori darajadali huquq buzarlklarni oldini olishga va ularning sonini sezilarli darajada pasaytirishga yaqindan ko'mak beradi. Fuqarolik jamiyati qurish uchun har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati shakllangan yuqori saviyada bo'lishi lozim. Sohada faoliyat olib borayotgan shaxslarni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirib borsak, ular orqali jamiyatning boshqa qatlamlarida hayot kechirayotganlarning huquqiy bilimlarini oshirish natijasida fuqarolik jamiyatini qiyinchiliklarsiz qurishga muvaffaq bo'lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi 24.04.1997-yildagi 400-I-son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 12.12.2002-yildagi 439-II-son qonuni.
4. O'zbekiston Yuridik Ensiklopediyasi. T.: "Adolat", 2010., 709-bet.
5. H.B. Boboyev., X.T. Odilqoriyev., Davlat huquq nazariyasi, Toshkent. 2005.
6. Mamatov X.T., O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari. 164-бет. (Дис-789/2009.)

⁷ O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari., Mamatov X.T. Дис-789/2009. 4-бет